

# **FRAZEMALAR MAZMUN-MOHIYATI TILDA TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATI**

**Tursunova Nodirabegim Fayzullo qizi**

**Andijon davlat universiteti doktoranti.**

*Annotatsiya : Ushbu maqolada, frazeologik birliklarning semantikasi haqida so‘z bordi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning mazmun-mohiyati, funksional xususiyati asosida guruhlarga ajratilib, tasnif qilindi.*

***Kalit so‘zlar:** frazeologiya, frazeologik birliklar, semantika, frazemalarning mazmun-mohiyati maqomi.*

So‘nggi paytlarda frazeologik birliklarning semantikasi masalalari tilshunos olimlarning tobora ko‘proq e‘tiborini jalb etmoqda. Frazemalar mazmun-mohiyati umumiy nazariyasi muammolari bilan bir qatorda, frazeologik birliklarning semantik kategoriyalariga oid izlanishlar olib borilmoqda.

Ma‘lumki, har bir til frazemalarining semantikasi bir biriga o‘xshash bo‘lmagan murakkabligi bilan ajralib turadi. Tillardagi intensivikasi va deintensifikasi kategoriyalari orqali lisoniy belgilarni kuchaytirish yoki susaytirish, ularning miqdorini kamaytirish yoki ozaytirish holatalri vujudga keladi. Ushbu holatning yorqin ko‘rinishi frazemalarning paydo bo‘lishida, ularning o‘zaro pragmatik munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Falsafiy kategoriyalardan bo‘lgan miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga bo‘lgan ta‘siri, qonuniyatini frazemalar misolida yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Ular tilning leksik sathida mavjud bo‘lgan nomlash, sifat, miqdor, baho, emotsionallik, obrazlilik, tasvirlash, ekspressivlik kabi subyektiv-pragmatik kategoriyalar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan holda yangi til birligi sifatida voqealanadilar hamda tilning semantik tizimida sifat ko‘rsatkichiga ega bo‘lgan yangi birlik sifatida shakllanadilar.

Ingliz va o‘zbek tillarining frazeologik va qator izohli va tarjima lug‘atlarida faktik materiallariga asoslanib,<sup>1</sup> tillardagi frazeologizmlarning mazmun-mohiyatidan, funksional xususiyatidan kelib chiqqan holda ularning maqomini quyidagicha tasniflash mumkin:

Birinchi guruh, o‘zbek tilidagi shaxsning ahloq-odob sifatlarini voqealantiruvchi frazemalar: *oq ko‘ngil, sofdil sof ko‘ngil, yulduzni benarvon uradi; qishda qor so‘rasang bermaydi, bironni yerga urmoq, futur yetkazmoq, zarar yetkazmoq, xalal yetdi, ko‘zini yog‘ bosgan, egardan tushmaslik, tirnoq orasidan kir qidiradi, beti yo‘q va boshqalar.*

Ikkinchi guruhga shaxsning intellektual (aqliy) faoliyati bilan bog‘liq hodisalarni voqealantiruvchi frazemalar: *fahm-farosatli, oqu-qorani farqiga boradi, esi past, molfahm, ammamning buzog‘i, ko‘pni ko‘rgan, oq-qorani tanimoq, aqli o‘tkir, aqli joyida.*

Uchinchi guruhga shaxsning irodaligini ifodalovchi frazemalarni kiritish mumkin: *sabr qilsang g‘o‘radan xalvo bitar, sabrning tagi sariq oltin, o‘pkasini qo‘ltiqlab, sabr kosasi to‘lmoq, to‘ydan oldin nog‘ora chalmoq.*

To‘rtinchi guruhga shaxs tuyg‘ulari va shaxslar orasidagi tuyg‘ularni ifodalovchi frazemalar ma’nolariga qo‘shimcha emotsionallik baxsh etuvchi iboralar: *jonini fido qilmoq, tog‘ni talqon qilmoq, jonini hovuchlab, labiga uchug‘ toshadi, do‘ppi tor keldi.*

Bundan tashqari, bir qator frazeologizmlar mavjudki, ular til egalarining turli psixologik, emotsional holatini, bir so‘z bilan aytganda, kreativ holatini voqealantirish uchun “dunyoga” kelgan. Bunday frazemalar ko‘proq milliy mentalitet bilan sug‘orilgan. Darvoqe, o‘zbek tili frazemalari voqealantirgan narsa, hodisa va turli psixologik holatlarni ingliz tili frazeologik “dunyosi”da ham kuzatishimiz mumkin. Ta’kidlash lozimki, bir qator holatlarda ikkala tilda ham birxil leksik komponentlarga ega bo‘lgan frazemalar o‘xshash, ba’zan juda yaqin

---

<sup>1</sup> Кунин А.В. Англо – русский фразеологический словарь. Москва, русс. Яз., 1984 – 945с; Cobuild C. Dictionary of idioms. London, Harper Collins publisher, 1997-493 p (4400 ibora); Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли луғати.

boʻlgan tushunchalarni ifodalovchi birliklar sifatida shakllanganlar. Ushbu holat xalqlarning mantiqiy fikrlash yoʻllari mushtarakligidan darak beradi. Lekin, shu bilan birga, har bir til oʻz makoni, hududida gapiruvchi xalqning diniy, milliy-tarixiy xususiyatidan kelib chiqqan holda, oʻziga xos birliklar bilan boyib boradi. Buning yorqin isboti sifatida quyidagi ingliz yilidagi misollarga eʼtibor qaratsak:

1. Shaxsning salbiy xususiyatlarini ifodalovchi frazemalar: *a bad actor, fiddle while Rome is burning, swear black is white, hit a man when down, sell a person, shoot the sitting pheasant, a double game, window dressing, show a false face.*

2. Shaxsning ijobiy taraflarini ifodalovchi frazemalar: *not to mince, not to put too fine an edge upon, tell somebody his own, single heart, open as the day, plain dealer, take something well, take it on the chin, fear no colours, high blood, be free of one`s flesh.*

3. Shaxsning tashq koʻrinishini ifodalovchi frazemalar: *a set of features, a dead pan, aquiline nose, like a full moon, ripe lips, Cupids bow, mutton-chop whiskers, a beauty spot, Jack Sprat, to be on the short side.*

4. Shaxsning intellektual qobiliyatini ifodalovchi frazemalar: *all there, have more brains in one`s little finger than one has in his whole body, clever Dick, a clever head, be (run) in blinkers, have a bad head for something, a one-track mind, have got apartments to let, not to have a brain in one`s head, a proper Charley, cousin Betty, dead from neck up, dump Dora, long hair and short wit.*

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Умарходжаев М. И. Принципы составления многоязычного фразеологического словаря. (На материале немецкого, узбекского и русского языков): Автореф. дис. ... канд. филол. наук,— М., 1972.

2. Райхштейн А. Д. Сопоставительный анализ немецкой и русской фразеологии.— М.: Высшая школа, 1980.—143 с.

3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли луғати

4. Кунин А.В. Англо – русский фразеологический словарь. Москва, русс. Яз., 1984 – 945с;
5. Cobuild C. Dictionary of idioms. London, Harper Collins publisher, 1997-493 p (4400 ibora);